

KO'RISHDA KAMCHILIGI BOR BOLALAR

*Umaraliyeva Nilufar**Andijon davlat pedagogika instituti, maktabgacha
ta'lim fakulteti 1- bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ko'zi ojiz shaxslarni taraqqiyotining manabalarini bilmay turib,ular ta'limga yondasha olmaymiz.Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga,ilm olishga,ishlashga va hayotda o'z o'rnni topishga xaqlidirlar.

Kalit so'zlar: nuqson, tiflopedagogika, inklyuziv ta'lim, ko'zi ojiz, zaif ko'rvuchi, total ko'rilar, korreksiya ,kompensatsiya.

KIRISH

Respublikamizda jismoniy rivojlanishida kamchiligibo'lgan bololarni ijtimoiy himoyalash,o'qitish va tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan,O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23-modda) va davlat tomonidan 1992-yilda ratifikatsiya qilingan BTMning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (23-modda)da nogiron bolalarni alohida parvarishlash, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi e'tirof qilingan. Shuningdek, Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF -5712-sod Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inkyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmalari sifatini yaxshilash maqsadida " ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI TO'G'RISIDA "gi qarori qabul qilindi.Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bolishlari uchun oilada yashahslari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Prizident SHavkat Mirziyoyevning 18.04.2020 yildagi "Ko'zi ojiz va zaif koruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtab –internatlarida ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida " gi qarori qabul qilindi . Qaroriga muvofiq , ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtab-internatlari Ichki ishlar vazirligi biriktirilib, "Nurli maskan " deb nomlandi . Ko'rish nuqsoniga ega bolalarni o'qitishni zamonaviy texnologiyalari asosida tashkil etish maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ko'rish qobiliyati insonning muhim fiziologik funksiyasi bo'lib , borliq va inson o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Tiflopedagogika yunoncha "tiflos" – "ko'r" , "so'qir" degan ma'nolarni anglatadi. Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar yaxsh ko'ra olmaydigan, ko'zi xira, zaif ko'ruchchi bolalar guruhiga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (totel ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganda (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak - atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabalariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, homila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'yndaydi.

Orttirilgan ko'rish nuqsonlari hozirgi kunda nisbatan kam uchraydi. Aholiga davolash – profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilangani tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilgani munosabati bilan zaif ko'ruchchi bolalar ancha kamaydi. Traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, skarlatina va boshqa kasalliklari oqibatida bolalarning ko'r yoki zaif ko'ruchchi bo'lib qolish hodisalariga deyarli tamomila barham berildi.

Zaif ko'ruchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turlarga bo'linadi:

1. Ko'ruv o'tkirligi 0,05 dan 0,1 gacha
2. Ko'ruv o'tkirligi 0,1 dan 0,2 gacha
3. Ko'ruv o'tkirligi 0,2 dan yuqori 0,4 gacha

Ko'rish o'tkirligi pastligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko'rish maydoni kamaygan, fazoviy idrok buzilgan bo'lishi ham mumkin. Bularning barchasi o'quv materialini idrok etish, o'zlashtirishga salbit ta'sir ko'rsatadi. Zaif ko'ruchchi bolalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texnika va optic vositalar yordamida o'qitilishi maqsad muvofiqli.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI :

1. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika. - T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2018.
2. M.R.Po'latxo'jaeva. Defektologiyaning klinik asoslari. - T: "Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti", Toshkent 2013.